

TARBIYA MASALASIDA AXLOQ MUAMMOSI. OMMAVIY MADANIYATGA QARSHI KURASHISH ZAMON TALABI

Abdurahmonov Muhammad ¹

¹ O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti

1-kurs magistranti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 18.01.2025

Revised: 19.01.2025

Accepted: 20.01.2025

KALIT SO'ZLAR:

*Axloq, tarbiya,
madaniyat, ommaviy
madaniyat, axloqiy
qadriyat, komil inson*

Ushbu maqolada tarbiya jarayonida axloqiy normalarga rioya etish zarurligi, axloqiy qadriyatlarga asoslangan holda tarbiya topgan avlod har qanday yot g'oyalarga qarshi tura olishi keltirilib o'tilgan. Shuningdek bugungi kunning dolzarb muammosiga aylangan “ ommaviy madaniyat” ning yoshlar orasida urfga kirib asrlar davomida shakllanib kelgan milliy qadriyatlarimiz ildiziga bolta urib kelmoqda. Buning oldini olish maqsadida ta'lim va tarbiya jarayonini chuqur isloh qilishimiz lozim ekanligi maqolada keltirilgan.

KIRISH. Zamonaviy dunyomiz shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda G'arb mamlakatlari va unga yondosh mamlakatlarda axloqsizlikni madaniyat deb baholab uni yoshlar orasida “ ommaviy madaniyat” deb targ'ib qilish keng urfga kirmoqda. Buning keng kurtak yozishiga esa bugungi kundagi texnika va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanganligi qo'l kelmoqda. Yoshlar orasida fanga bo'lgan ishtiyoq, oilaviy munosabatlarga befarq bo'lishlik so'nib, ularning o'rnini ko'proq dam olish, ijtimoiy muhitning barcha jabhalarida erkin bo'lish, milliy qadriyatlarni esa eskilik sarqiti deb qarash odatiy holga aylanib qoldimoqda. Natijada, axloqiy sifatlar bo'lgan kamtarinlik, vatanga sadoqat, muhabbat, oilaga hurmat, vatanparvarlik kabi xislatlar yo'qolib bormoqda.

Axloqiy turmush tarzi insonning tarbiya olishlikdagi muhim jarayondir. Zero, axloqiy tarbiya insonning shaxs bo'lib yetishuvini ta'minlaydigan uzluksiz jarayonlardan biridir. Bu jarayonda shaxs axloqiy qadriyatlarni mohiyatini tushunib yetadi, o'zida axloqiy fazilatlarni kamolotga yetkazadi. Axloqiy tarbiya jarayonida inson qanday yashash kerak?

Degan savolni o'z oldiga qo'yadi. Hayoti mobaynida o'z kelajagini oldindan ko'rib, o'z shaxsiy taraqqiyoti yo'lida ulkan maqsadlar qo'yadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Axloqiy tarbiya jarayoni Sharq mamlakatlarida qadimdan shakllangan bo'lib, bunda tarbiya beruvchi tarbiyalanuvchiga axloqiy fazilatlarni shakllantiruvchi ertaklar rivoyatlar aytish usulidan foydalanadi. Yoshligidan axloqiy hikoyalar eshitgan bola esa katta bo'lganida ham xuddi shu fazilatlarga tayanadi. Hayot yo'lida nima qilish kerak-u nima qilmaslik kerakligini oldindan biladi. Bugungi kunda ham maktabgacha ta'lim muassalarida bu usuldan foydalanib kelinmoqda. Sharq xalqlariga mos yana bir metod bu namunaviylik metodi hisoblanadi. Tarbiya jarayonida ota-onaning o'zi ham farzandiga o'rnak bo'la oladigan darajada tarbiyalangan bo'lishi kerak.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar tag zahirida ma'naviy barkamol shaxsni voyaga yetkazishdir. Bunda ta'limning tarbiya jarayoni bilan uzviy bog'langanligini ko'rishimiz mumkin. Ma'naviy barkamollik ko'plab muammolarning kaliti hisoblanadi. Buni biz tarixiy, falsafiy adabiyotlarimizda ko'rishimiz mumkin. Tarixan jamiyatning taraqqiyoti komil inson bilan belgilanishi bizga ma'lum. Bugun biz yosh avlodni tarbiyalar ekanmiz, biz bunda axloqiy qadriyatlarga alohida e'tibor berishimiz kerak. Ma'naviy jihatdan axloqiy qadriyatlar bilan sifatlangan shaxs o'z taraqqiyoti davomida ko'plab ishlarni qilishga qodir. Axloqiy qadriyat masalasiga qadimdan e'tibor yuqori bo'lgan. Misol uchun birgina "Avesto" kitobida "ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" iborasining keltirilishi, unda axloqiy qadriyatlarning inson kamolotida muhim ekanligi buning yaqqol misolidir. Bundan tashqari Yusuf xos Hojib bobokalonimiz qalamiga mansub "Qudatg'u bilig" asarini tahlil qiladigan bo'lsak, jamiyatning ravnaqi, insonning baxt-saodatga erishuvi davlatda adolat, davlat, baxt va qanoatning barqarorligi bilan belgilanadi. Bu kitobda "odamzod naslining ulug'ligi bilimdan. U aql-idrok tufayli ne-ne tugunlarni yechishga qodir. Uquv –idrok va bilim egasi bo'lgan har qanday odam sharaflidir" deb yozib qoldirgan⁹.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi yoshlarimiz orasida urfga kirgan "ommaviy madaniyat" aslida axloqiy madaniyatsizlikni targ'ib qilayotganligi barchamizga ma'lum. Bunday axloqsizlikning keng targ'ib qilinishiga ijtimoiy tarmoqlarning ommaviylashganligi va ularni nazorat qilishlikning imkoni yo'qligi. Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarimizni jalb qilayotgan behayo

⁹ Yusuf Xos Hojib "Qudatg'u bilig". T.:696 Cho'lpon...:2007. B.15

suratlar, tanalariga chizilgan turli xil tatular, ayrim o'ziga xos soch turmaklari hamda kiyinishlari aslida ma'naviyatdan butkul yiroqdir. Bulardagi zamonaviylik rukni axloqsizlikka singdirilgan. Yaxshi yomonni ajrata bilmaydigan yoshlarimizni ongini egallab, ularda buzqlikni davom ettirishni maqsad qilib olgan aslida. Mustaqillikka erishganimizning dastlabki kunlaridanoq kelajakni oldindan ko'ra bilgan birinchi prezidentimiz Islom Karimov avvalo, ishni aholimizni ma'naviy jihatdan boyitishdan boshladilar. Dastlab, ma'naviy me'roslarimiz tiklanib xalqimizning foydalanishi uchun topshirildi. Vatanparvarlikni tarannum etuvchi, axloqiy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan darsliklar ta'lim jarayonida qo'llana boshlandi. "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Ma'naviyat asoslari" va shu kabilar shular jumlasidandir.

Globalashuv jarayoni natijasida yuzaga kelgan "ommaviy madaniyat" ekspansiyasi ta'sirida qadriyatlar tizimida sodir bo'ladigan yangilanishlar insonda muayyan o'zgarishlarni keltirib chiqarishi, inson va jamiyat o'z ma'naviy axloqiy tayanchlaridan mahrum etilishi mumkin. Shu ma'noda Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek "...kommunistik mafkura va axloq normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqlardan foydalanib, chetdan bi uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "Ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishi mumkinligi barchamizga ayon bo'lishi kerak. Ayniqsa, hozirgi vaqtda dunyoda kuchayib borayotgan turli ma'naviy tahdidlarning oldini olish, "ommaviy madaniyat" ning zararli ta'siridan farzandlarimizning ong-u tafakkurini himoya qilishda ilm-u fan madaniyat jamoatchiligi, ijod ahlining o'rni va roli tobora ortib bormoqda. Nega deganda, bizning milliy ruhimiz va tabiatimizga yot va begona bo'lgan ana shunday "madaniyat" namunalarini faqat tanqid va inkor qilish yoki ularni ta'qiqlash bilan biror natijaga erishib bo'lmaydi. Bunday xatarlardan hayotimizni asrash, ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik uchun, avvalambor, ezgu insoniy g'oyalar va yuksak mahorat bilan yaratilgan asarlar orqali xalqimizning madaniy saviyasini yuksaltirish, boshqacha aytganda, bugun jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste'dod musobaqasida bellashuvga qodir bo'lishimiz shart"¹⁰

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, texnika va texnologiyning jadal rivojlanishi jarayonida turibmiz, biz undan chetda qola olmaymiz. Shu sababli yoshlarimizda axloqiy fazilatlarni yuksaltirishimiz, ularni qat'iyatli, vatanga sadoqat bilan

¹⁰ Karimov.I. "yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch".T."Ma'naviyat",2008. B.117

xizmat qiladigan shaxs qilib tarbiyalash har bir o'zbek fuqarosiga yuksak mas'uliyat yuklaydi. Bunda birinchidan, darsliklarda axloqiy fazilatlarni qadriyat sifatida tarannum etuvchi bebaho ma'naviy me'roslarimizdan amalda joriy etishimiz lozim. Albatta, tarbiya oiladan boshlanadi. Ota onalar avvalo o'zlari farzandlariga namuna, o'rnak bo'lishi kerak. Ikkinchidan, hali biz o'rganmagan buyuk allomalarimizning asarlari juda ko'p. aksariyat qismi tarjima qilinmagan. Ularni tarjima qilish orqali hali o'rganilmagan juda ko'p muhim ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Qolaversa, Sharq mamlakatlari o'zining qomusiy olimlari bilan ma'lum va mashhur. Ularning ijod yo'li, yutuqqa erishishlikdagi qo'llagan prinsiplari biz uchun ham qiziqarli, ham o'rnak bo'lsaarziydigan hodisadir. Shu sababli, kinorejissorlarimiz allomalarimiz haqida tarixiy hujjatli filmlar ishlab chiqsalar, televideniya orqali namoyish qilsalar bu yoshlarimizda ham milliy g'urur uyg'otadi, hamda o'zlarida ideal shaxs qiyofasini shakllantirgan bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusuf Xos Hojib "Qudatg'u bilig".-T.: "Cho'lpon".2007.B15
2. Karimov.I. "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch".-T.: "Ma'naviyat".2008.B117
3. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik.-T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2010
4. Qahhorova.M, Agzamova N. Etika. O'quv qo'llanma. Nizomiy nomidagi nashriyot. 2018
5. GuseynovA.A, Apresyan R.G.Etika. Darslik.-M.:Gardariki. 2000
6. Nurmatova.M, muhammadjonova L. Ma'naviyatning axloqiy asoslari.-T.: Universitet. 2013
7. Nurmatova. M.A, Abdullayeva N.B. Axloqiy va estetik madaniyat. O'quv-uslubiy qo'llanma.-T.: Universitet. 2013
8. Nurmatova M. A. Axloqiy va estetik madaniyat. O'quv uslubiy qo'llanma.-T.: "Turon-Iqbol".2016
9. Husanov.B, G'ulomov.G'. Muomala madaniyati. Darslik.-T.: "Iqtisod-moliya".2009
10. Muhammadjanova L, Abdulla Sher, Shadimetova G. Axloq falsafasi. Darslik. -T.: 2023